

UDK 145.15.256

**SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZ VA UNING AZIM SUYUN SHE'RIYATIDA
AKS ETISHI****Naima Keldiyorova,***filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**Renessans ta'lim universiteti, dotsenti*naima.2024@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'riyatdagi poetik obraz tushunchasi aks etgan. Adabiyotshunoslik ilmida poetik obrazga berilgan ta'riflar muhokama qilinib, Azim Suyun she'riyatidagi obrazlarning tasnifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: mavzu, obraz, badiiy obraz, poetic obraz, konsepsiya, badiiy tasvir.

Аннотация. В статье рассматривается соотношение темы и образа в поэзии. Обсуждаются определения художественного образа в литературоведении, а также представлена классификация образов в поэзии Азима Суюна.

Ключевые слова: тема, образ, художественный образ, поэтический образ, концепт, художественный образ.

Annotation. This article reflects the concept of poetic image in poetry. The definitions given to poetic image in literary criticism are discussed, and the classification of images in Azim Suyun's poetry is presented.

Keywords: theme, image, artistic image, poetic image, concept, artistic image.

Kirish. Poetik obraz she'riy asarning ko'chimlar vositasida yuzaga kelgan, ta'sirchanlik hissi yuqori bo'lgan "qahramoni" bo'lib, u kuchli kechinma hosil qilish vositasi hisoblanadi. Poetik asarda oddiy predmetlar ham o'ziga ortilgan badiiy-estetik vazifa vositasida kuchli poetik obrazga aylanishi mumkin. Bu obrazlar turli shoirlar ijodida turli xil yoki aynan bir xil bo'lishi ham mumkin, ammo uning zaminida yotgan mazmun (aniqrog'i, lirik kechinma, muammo) bir-birini takrorlamaydi. Bu esa ijodkorning poetik obraz yaratish mahorati bilan bog'liq sanaladi.

Poetik obraz shoir ongi uchun muhim bo'lgan voqealar, jarayonlar, hayotda ro'y berayotgan hodisalarni o'zida mujassam etadi. Hayotni idrok etish orqali o'zida qayta in'ikos etadi. Poetik obraz hayotda yoki xayolda mavjud tushunchalarning hissiy yoki hissiy-aqliy tasviri deyish mumkin. U hissiy tuyg'ularni uyg'otadigan estetik hodisa sanaladi. Poetik obraz muallifning xayoliy va hayotiy olamini tasvirlashning bir usuli ham bo'lib, bu ikki olamning birlashuvi poetik obrazni yuzaga keltiradi.

Poetik obrazlar she'riyatda alohida maqomga ega. Ular orqali ijodkorning g'oyaviy-estetik maqsadi ham, she'ning mavzu ko'lami, ifoda vositalari-yu strukturasigacha bo'lgan jarayonni o'zida to'liq mujassamlashtiradi. Shuning uchun adabiyotshunos olimlar she'rdagi poetik obrazning bajargan vazifasiga katta e'tibor qaratishadi. Poetik obraz she'rdagi badiiy unsurlarning barchasini bir nuqtaga jamlagan holda ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatiga bog'lab turishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. She'rdagi ruhiyati chizilayotgan lirik qahramonning qalb kechinmalarini ochishda ham poetik obraz

muhim ahamiyatga ega. Shoir lirik qahramon kechinmalarini tasvirlar ekan, uni avvalo poetik obraz va timsollar, detallar yordamida ochishga harakat qiladi. Bunda she'rdan poetik obrazga aylangan so'zga yoki tushunchaga katta urg'u tushadi. Chunonchi, XX asr o'zbek she'riyatining hassos shoiri Cho'lpon ko'p ishlatadigan bahor, yoz, kuz, qish, yulduz, oy, kecha-kunduz, g'arb, sharq, kishan, ko'ngil kabi so'zlar oddiy detaldan poetik obraz darajasiga ko'tarilgan va lirik qahramonning ruhiy olamini namoyon qiladigan obrazlar silsilasiga aylanganini ko'ramiz. 20-30-yillarda faol ijod qilgan Fitrat, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon va boshqa ijodkorlarning ijodida ham shu davrga monand bo'lgan va davr suronlarini yengib o'tgan, bugungi kunda ham o'zining badiiy jozibasini yo'qotmay kitobxonga ma'naviy ozuqa berayotgan poetik obrazlar ko'plab topiladi. Poetik obrazlar jadid she'riyatida ham o'ziga xos milliy ozodlik g'oyalarini ochib berish maqsadida turlicha qo'llanilgan.

Adabiyotlar tahlili. XX asr o'zbek she'riyatini chuqur va keng ko'lamda tadqiq etgan adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam davr she'riyati haqida shunday yozadi: "O'zgarish zarurati nechog'li dolzarb bo'lmasin, jadid shoirlarning ijodiy izlanishlari, eng avval, mumtoz she'riyat an'analari negizida kechganini ham ta'kidlash kerak. Bu tabiiy ham. Negaki, jadid shoirlarning bari milliy madaniy zaminda yetishganlar. Xuddi vazn bobidagi izlanishlar aruzdagi jonli tilga eng muvofiq o'lchovlarni saylab ishlatish-u aruz imkoniyatlarini kengaytirishdan boshlangani kabi ifoda sohasidagi izlanishlar ham mumtoz she'riyatdagi poetik obrazlarga yangicha mazmun yuklashdan boshlandi. Albatta, o'zgarishlar nisbatan qisqa vaqt davomida va shunga yarasha shiddat bilan kechdi. Ehtimol, shu sababli ham qat'iy hukm maqomidagi xulosalar chiqarish ancha mushkuldir. Shunga qaramay, bir qarashdayoq jadid shoirlari ijodida an'ana va yangilik nisbati turlicha ekanligi ko'zga tashlanadi: birlarida (Siddiqiy Ajziy, Miskin, Tavallo) an'ana ustuvor, boshqalarining ijodiy tadrijida an'anaviylikdan yangilik tomon o'zgarish (Hamza, Avloniy), yana birlarining ilk she'riy mashqlaridayoq yangilikka moyillik (Fitrat, Cho'lpon) namoyon bo'ladi". Olimning mazkur mulohazalari ma'lum davr ehtiyoji sifatida yuz beradigan badiiy tafakkurdagi evrilishlar haqida bo'lib, bevosita tafakkurdagi o'zgarishlar poetik obrazlar misolida yuzaga chiqishi yoki ana shu obrazlarga yangi vazifa yuklanishi bilan izohlanadi.

Bu esa o'z navbatida poetik obrazning she'r kompozitsiyasi, tili, mavzu ko'lami kabi muhim badiiy muammolarni belgilashdagi o'ringa ham e'tibor berishni taqozo etadi. She'rdan qo'llanilgan poetik obraz shunchaki tanlanmaydi, balki muayyan bir badiiy g'oya, lirik kechinma, mavzu, muammoning u yoki bu qirrasini ochishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, Azim Suyunning quyidagi she'rida shaxs erki, ozodlik, kishiga imkon berish kabi g'oyalar, jamiyatda yetuk kishilarni ko'rolmaslik va ularni haq so'zi uchun cheklash muammosi tog'dagi bo'ron mavzusida ifodalangan:

Tog' bo'roni darada betin,
Yozmoq istar qanotlarini.

To‘rt tomondan qoyalar lekin

Bo‘g‘ar uning shiddatlarini.

She‘rda adolat istagida kurashayotgan va ilojsizlikdan, o‘z yurtini tashlab ketolmaydigan vatanparvar shaxsning lirik kechinmalari timsollar yordamida tasvirlangan. Bo‘ron aslida tabiat hodisasi bo‘lib, u eski dimiqqan havoni yangilaydi, eski, kuchdan qolgan dov-daraxtni sindirib yo‘q qiladi, o‘rniga yangisi kelishiga imkon beradi, yerga chuqur o‘rnashmagan qumlarni uchirib ketadi. Ammo bo‘ronga ham bas keladigan toshlar ham borligi va ular bo‘ronni yig‘lashga majbur etishadi. Biroq “kaltabinlar”, “toshlar” isyon aslida bo‘ronning ruhida mavjudligini ular bilishmaydi. Shuning uchun bo‘ron tushida o‘zini ozod va erkin ko‘radi. She‘rda jamiyatda yangilik qilish uchun kurashayotgan odam tasviri bor. Bu yerdagi qoya yangilik qilishni istamaydigan, fikri qotib qolgan, o‘zi tog‘ bo‘lishni eplolmaydigan kishilar timsoli bo‘lib, ular bo‘ronga qarshi kurashadilar. Chunki bo‘ron yolg‘iz, ular esa ko‘pchilik va ular bo‘ronni har tomonidan o‘rab, jismonan yengishadi. Uni o‘z ideali uchun yig‘lashga majbur qilishadi. Bilishmaydiki, tabiatan uning ruhi doimo uyg‘oq, bo‘ron tushida ham o‘z erkini ko‘raveradi. Lekin baribir qachondir uni real dunyoda ham amalga oshirishga umid qilib yashaydi.

Tadqiqot metadologiyasi. Agar she‘r ostiga “1974”-yil sanasi qo‘yilganiga e‘tibor qaratisa, Azim Suyunning iste‘dodini tushunish mumkin bo‘ladi. (Shoirning ijodiy yutuqlari va biografik ma‘lumotlari 1-ilovada keltirilgan). O‘sha davrdayoq mustaqillik, ozodlik g‘oyasini tarannum etganligi oydinlashadi. Buni u tog‘ bo‘roni poetik obrazi orqali berishi esa yetuk badiiy-estetik idealga yaqinligini ko‘rsatadi. Chunki haqiqiy she‘r obrazli fikrlashni taqozo etadi.

Ayonki, har bir davr she‘riyatining o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy mavzulari bo‘lganidek, ko‘p qo‘llaniladigan va barchasi uchun mushtarak sanalgan poetik obrazlari ham bo‘ladi. Bular an‘anaviy tarzdagi poetik obrazlar ham bo‘lishi yoki yangidan kashf etilayotgan bo‘lishi ham mumkin. An‘anaviy poetik obrazlar bo‘lgan taqdirda ham davr she‘riyati uning mazmunini yangilab, yangicha konsepsiya bilan boyitib, yangi poetik hodisa sifatida kitobxonga taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, davr ruhini aks ettirishda poetik obrazlarning ham o‘rni katta.

O‘tgan asrning 70-80-yillarida ham davr ruhini o‘zida mujassamlashtirgan va ko‘p jihatiga ko‘ra o‘zini qayta qurib, badiiy tafakkurini yangilashga harakat qilayotgan she‘riyat vujudga keldi. Ijod maydoniga 50-60 yillarda kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Yusuf Shomansur, Halima Xudoyberdieva kabi shoirlar ham bu davrga kelib o‘z ijodining eng yuksak namunalarini taqdim eta boshladilar. Ularning she‘riyati davr kitobxonlarining ruhiyatiga juda katta ta‘sir ko‘rsatib, o‘zligini anglash ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda yosh ijodkorlar uchun ham ibrat maktabini o‘tadilar. Bu davrda Erkin Vohidov yoki Abdulla Oripov kabi shoirlarning izdoshlari, bir muxlis kabi shakllangan yosh shoirlar yetishib chiqdi. Ular yaratgan she‘rlar

ham E.Vohidov yoki A.Oripov kabi davr g'oyalari bilan izchil bog'langan bo'lsa-da, yangicha poetik obraz yaratish yo'lida izlana boshladilar.

Shuningdek, yangicha poetik izlanishlari bilan tanilgan Rauf Parfi kabi shoirlarga ergashib, ijod qilayotgan yosh shoirlar ham yetishib chiqdi. Shu bois 70-yillar yoshlar she'riyatini kuzatsak an'anaviy xarakterdagi she'rlarni ham, yangicha talqinlarga yo'l ochayotgan she'riyat namunalarini ham ko'rishimiz mumkin. Azim Suyun, Xurshid Davron, Ikrom Otamurod, Usmon Azim, Sulaymon Rahmon, Tilak Jo'ra, keyinroq ularning safiga qo'shilgan Shavkat Rahmon, Qamchibek Kenja, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur kabi shoirlar she'riyatida ayni xususiyat yetakchilik qiladi. Ba'zi shoirlar ijodida ko'proq an'anaviy she'riyatga xos unsurlar yetakchilik qilsa (Azim Suyun, Xurshid Davron, Tilak Jo'ra, Sulaymon Rahmon, Sirojiddin Sayyid kabi), boshqalarda inson ruhiyatini tizginsiz kechinmalar fonida, kitobxonni o'ylashga, tagma'no qatlamlar mag'zini chaqishga undaydigan poetik vositalar orqali yangilashga intilish kuzatilayotganini ko'ramiz (Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Ikrom Otamurod). Bular orasida Azim Suyunning alohida o'rni bo'lib, uning poetik obrazlari aniq predmetlilik darajasiga chiqqanligi, folklor an'analari va shakliy izlanishga boyligi bilan ajralib turadi.

Tahlil va natijalar. Shoirning 70-80-yillarda yozgan she'rlarida ustozlari G'afur G'ulom, Mirtemir va Abdulla Oripov ijodidan bahra olish, ta'sirlanish sezilib turadi. Ayni paytda an'anaviy mavzularda tamoman yangicha poetik umumlashmalar qiladi. Azim Suyun shoirlikni, eng avvalo, xalq dardini aytishda, uning dardiga darmon bo'lishda, millatga xizmat qilishda, deb biladi. U "Shoirlar" nomli she'rida shoirlikni el-yurtning koriga yarab, shaharning qoq o'rtasidan oqib o'tayotgan daryoga, anhora mengzaydi.

"Xalqning qalbida sen ham,

Daryo, anhor bo'lib oq".

Ana shundagina sen chinakam shoirsan, deb fikrini davom ettiradi muallif. Biroq, Azim Suyun shoirlikni faqat shu tarzdagina ta'riflab qolmaydi. Uning uchun shoirlik, eng avvalo, o'zining hassos qalbiga ega bo'lmog'i, borliqni, go'zallikni xuddi sevikli yor kabi sevuvchi, undan zavqlanuvchi, shu ona zaminga, xalqiga katta mehr-muhabbatni beruvchi namuna bo'lmog'i lozim deb biladi.

"Shoir" nomli she'rida yetakchi poetik obraz esa shoirning hayotsevarligini, vatanga bo'lgan muhabbatini ifodalaydi:

U sevadi oppoq tog'larni,
Chaqmoqlarning shiddatin sevar.
Kuzak yeli, yashil bog'larni,
Tanti oftob tal'atin sevar.
Sevadi u g'uncha nafasin,
Shabnamlarga benazir oshiq,
Sevadi u qushlarning sasin,
Osmon unga zangori qo'shiq...

Bu yerda vatan tuyg'usi har qanday siyosiy mafkura va guruhlar talabidan holi, tabiiy bo'lishi shartligi, buni esa vatan so'zi qatnashmasdan ham tasvirlash mumkinligini ko'rsatadi. Lirik subyekt tasvirlayotgan shaxs o'tkinchi tushuncha, vaqtinchalik tuzum ta'siridan holi, yetuk inson bo'lib, u tog'dagi qorlarni yaxshi ko'radi, g'uncha nafasini his etish uchun kishi qanchalik kuzatuvchan va sezgir bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Bu yerdagi sevgi butun borliqqa, birinchi galda esa shu muqaddas ona zaminga, vatanga, xalqiga, millatiga bo'lgan sevgisida mujassamligi namoyon bo'lgan. (O, baridan buyuk, muqaddas // Ona xalqqa bo'lgan sevgisi.) Demak, ko'rinib turibdiki, she'r va shoirlik haqida shoirning estetik prinsiplari aniq. Shoirlik mavhum tuyg'ular izhori emas, balki shu tuyg'ularning kim yoki nimagadir (tashqi) va o'z qalbiga (ichki) munosabati sifatida paydo bo'layotgan ilhomiy holat sanaladi.

Shoir saksoninchi yillardayoq vatan haqida, dehqonlar haqida, tabiat va boshqa ko'plab mavzularda qalam tebratdi. Azim Suyun o'sha kezlariyoq ona tilimizga bag'ishlab achchiq kinoya ruhida bitilgan bir she'rida vatanparvarlik, milliy g'urur va o'zlik kabi qadriyatlarning toptalishini katta jasorat bilan ko'tarib chiqqan edi. She'r ilm-u so'z bobida yuksak martabaga erishib, muborak zot, alloma darajasiga ko'tarilgan mashhur zamondoshning ta'rif-u tavsifi bilan boshlanadi. Bu alloma o'zining yuksak salohiyati bilan hatto insonlar qalbini zabt etib, ular uchun idealga aylangani go'zal poetik vositalar asosida tasvirlanadi. "Kimlargadir qosh, kimlargadir ko'z" bo'lgan bu muborak zotning yagona kichik nuqsoni haqida to'xtalib, shoir quyidagilarni yozadi:

Tiriklik paytdayoq

Shonli va mag'urur

Haykallar tik etmish

Ko'plar dilida.

Faqat,

o'z tilini bilmas emish u,

U so'zlay bilmasmish

Ona tilida...

Xulosa. She'rning epilogi sifatida bitilgan ushbu misralar millatning fojiasi sifatida yangramoqda. Jamiyatning eng intellektual a'zosi, ziyoli kishisining o'z ona tilini bilmasligi, milliy o'zlikdan yiroqlashuvi sho'ro siyosati oqibatlaridan biri edi. Zero, til millatning o'zligini namoyon etuvchi ko'zgu, bebaho qadriyat hisoblanadi. Ana shu qadriyatni unutishga majburlagan sobiq sho'ro davrining g'oyaviy maqsadlaridan biri bo'lgan ushbu fojiani Azim Suyun o'sha davrning o'zidayoq katta jasorat bilan qalamga olgan. She'rxonni o'ylashga, millatparvarlik ruhining kuchayishiga chorlovchi ushbu she'rdan ona tili poetik obraz darajasiga ko'tarilgan. Bu poetik obraz o'zida faqat lisoniy mazmunnigina emas, balki yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur, or-nomus g'oyalarini ham ifodalaydiki, bu uning ko'p ma'noli ekanligidan dalolat. She'rdan shoir uslubining

sodda, xalqona va xalqparvar ekani o'zini to'la oqlagan. Bu shoir ijodiy olamining o'ziga xosligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Афоқова Н. Жадид шеърляти поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – 140 б.
2. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 556
4. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б.
5. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
6. Суюн А. Танланган асарлар. 7 жилдлик. Жилд 5. – Т.:Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа, 2014. – 399 б
7. Суюн А. Танланган асарлар. 7 жилдлик. Жилд 6. – Т.:Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа, 2014. – 426 б
8. Суюн А. Танланган асарлар. 7 китоб. Жилд 7. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 408 б.
9. Суюн А. Жавзо. – Т.:Адабиёт ва санъат, 1986. – 176 б
10. Суюн А. Сарбадорлар. – Т.:Чўлпон, 1984. – 90 б
11. Суюн А. Сайланма. – Т.:Шарқ, 1997. – 416 б
12. Суюн А. Хаёлот. – Т.:Адабиёт ва санъат, 1984. – 88 б

